

15-Fevral, 2026-yil

O‘ZBEKISTONNING BRONZA VA TEMIR DAVRI YODGORLIKLARINI O‘RGANILISH MANBASHUNOSLIGI

Xolova Shahrizoda Shomrod qizi

Osiyo Xalqaro Universiteti 1 - kurs magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekistonning bronza va temir davri yodgorliklarini o‘rganilish manbashunosligi tarixi yoritib berildi.

Kalit so‘zlar: davr yodgorliklari, hunarmandchilik, metallurgiya, ibtidoiy jamiyat, o‘troq hayot, moddiy madaniyat, arxeologik tadqiqotlar.

KIRISH

Ajdodlarimiz tarixining ilk davrini, ya’ni ibtidoiy jamoa tuzumi tarixini qayta tiklash, uni o‘rganish nihoyat darajada murakkab, ayni vaqtda sharaflı vazifadir. Uzoq davom etgan mazkur tarixiy davrda tabiatning turli-tuman hodisalari girdobida yashagan ibtidoiy kishilar yer sharining katta qismida hayot kechirib, xilma-xil tarzda tirikchilik o‘tkazganlar. Shunday ekan ibtidoiy davr kishilari tirikchiligining asosiy manbai ularni o‘rab turgan geografik muhitning turli shart-sharoitlariga muvofiq ovchilik, baliqchilik, termachilik, keyinchalik esa dehqonchilik va chorvachilikdan keladigan mahsulotlar bo‘lganligi shubhasizdir. Ibtidoiy kishilar o‘z tirikchilik vositalariga muvofiq keladigan qurol-yaroqlarni, asbob-uchkunalarini turar-joylarni va boshqa turli narsalarni yaratganlarki, ular yaratgan buyumlar, mehnat qurollari, turar-joylarning qoldiqlari, ayni vaqtda o‘sha davr kishilarining butun skeletlari, yoki ular skeletining ayrim qismlari yer ostida saqlanib keladi. Bu vositalar kishilikning ibtidoiy davrini o‘rganishda asosiy manba bo‘lib hisoblanadi.

Shu narsa ravshanki, kishilikning keyingi davr tarixini bayon qilishda olimlar asosan yozma manbalarga suyanadilar. Lekin ibtidoiy davr tarixi bunday manbalarga ega emas. Chunki ibtidoiy davrda yozuv ham, yozma manbalar ham bo‘lmagan. Lekin ibtidoiy davr tarixining shunday ajoyib, nodir manbalari mavjudki, mazkur manbalar qanday qilib odamzod hayvonlar dunyosidan ajralib chiqib, kishilik jamiyatini vujudga keltirganligini isbotlab bera oladi.

Arxeologik manbalarga fakt buyumlar (topilma buyumlar) kirib qolmay, balki aholi istiqomat qilgan joylar va turar joylar, qabrlar, ustaxonalar, qadimgi odamlar yashagan g‘orlar, muqaddas joylar, qadimgi sug‘orish tarmoqlari, kanallar, to‘g‘onlar, yo‘llar va hokazolar kiradi. Turar joylarning evolyutsiyasini o‘rganish oila va ijtimoiy tuzum evolyutsiyasi haqida fikr yuritish imkonini beradi. Kollektiv turar joylar o‘rnini yakka oilalarning turar joylari egallagan, ilgari muhofazalanmagan aholi qarorgohlari o‘rnida muhofaza qilingan aholi punktlari paydo bo‘lgan. Arxeologik yodgorliklarning ko‘pi qazish ishlari davrida topilgandir.

Ibtidoiy arxeologiya umumiy arxeologiyaning tarkibiy qismini tashkil etib, yer ostidan, g‘orlardan qoya toshlardan topilgan moddiy- madaniy va san‘at buyumlarini

15-Fevral, 2026-yil

sinchiklab o‘rganish asosida kishilik jamiyati tarixining yozuvgacha bo‘lgan ibtidoiy davri tarixini sinchiklab o‘rganadi.

ASOSIY QISM

Odamlar yozishni bundan 5 ming yillar ilgari o‘rgangan bo‘lsalar, dastlabki oddiy tosh qurollar yasashni va ulardan foydalanishni esa qariyb bundan 3,5-3 million yil muqaddam, bila boshlaganlar. Ana shu katta davr tarixini tiklash va o‘rganish ibtidoiy arxeologiya fani oldida turgan eng muhim va sharaflı vazifadir. Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki yozuv va yozma manbalar kishilikning ibtidoiy hayoti haqida juda oz ma’lumot beradi. Demak, bu sohada arxeologiya fanining ahamiyati hammadan kattadir. Mazkur fan mutaxassislari esa juda ko‘p va xilma-xil arxeologik yodgorliklarni o‘rganadilar.

Demak, arxeologiya kishilikning yer ostida qolib ketgan moddiy, madaniy qoldiqlarini qidirib topuvchi va ularni tekshiruvchi tarixiy fandir. Arxeologiya mutaxassisi tosh qurollarni, suyaklarni, ro‘zg‘or va turar joy qoldiqlarini, zeb-ziynat va ibtidoiy davrda yaratilgan san‘at obidalarini qidirib topish, tekshirish va o‘rganish asosida kishilikning eng qadimiy tarixini tiklashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi³.

Kishilik jamiyati tarixining ibtidoiy davrini o‘rganishda mazkur davr kishilaridan qolgan hamma ashyolar orasida mehnat qurollarining ahamiyati kattaroqdir. Shunga binoan ibtidoiy kishilarning nimalarni, qanday ishlab chiqarganliklarini tiklash mumkin. Faqatgina mehnat vositalarigina emas, ayni vaqtda ibtidoiy makonlar, turar joylarning qoldiqlari, qabrlar, shaxtalar, ustaxonalar, odamlar uchun boshpana bo‘lgan g‘orlar, ungurlar, sug‘orish inshootlari, ibtidoiy qishloq xarobalarining qoldiqlari ham kishilikning ilk davri hayotini tiklash va o‘rganish uchun qimmatli manba hisoblanadi.

O‘zbekiston hududida bronza va temir davrlariga oid yodgorliklarni o‘rganish manbashunosligi bir necha bosqichda shakllangan bo‘lib, u arxeologik qazilmalar, yozma manbalar, kartografik materiallar, tabiiy-ilmiy tahlillar hamda zamonaviy interdisciplinar yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu davrlar Markaziy Osiyo tarixida ilk dehqonchilik madaniyatlari, irrigatsiya tizimlari, metallurgiya taraqqiyoti va urbanizatsiya jarayonlarining shakllanish bosqichi sifatida alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi⁴.

Ilk arxeologik tadqiqotlar va manbaviy asoslarning shakllanishi.

O‘zbekiston hududida bronza davriga oid yodgorliklarni ilmiy o‘rganish XX asrning birinchi yarmidan boshlangan. Dastlabki izlanishlar ko‘proq topografik kuzatuvlar va tasodifiy topilmalar asosida olib borilgan bo‘lsa, keyinchalik tizimli arxeologik ekspeditsiyalar tashkil etildi. Janubiy O‘zbekistonda joylashgan **Sopollitepa** va **Jarqo‘ton** yodgorliklarida olib borilgan qazishmalar bronza davrining rivojlangan dehqonchilik va hunarmandchilik markazlari mavjud bo‘lganligini ko‘rsatdi. Ushbu manzilgohlardan topilgan uy-joy qoldiqlari, sopol idishlar, mehnat qurollari va metall buyumlar moddiy manba sifatida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi⁵.

³ Abdullaev O‘.I. O‘rta Osiyo ibtidoiy jamoa tuzumi va ilk davlatchilik tarixi. – Toshkent, 2019. 40-41 bet

⁴ Abdullaev O‘.I. O‘rta Osiyo ibtidoiy jamoa tuzumi va ilk davlatchilik tarixi. – Toshkent, 2019. 45-46 bet

⁵ G‘affarov M.Q. O‘zbekiston hududida eneolit davri... – 2023. 35-36 bet

15-Fevral, 2026-yil

Bronza davri manbashunosligida stratigrafik tahlil, tipologik tasnif va radiokarbon usullar muhim o‘rin tutadi. Stratigrafiya orqali madaniy qatlamlar ketma-ketligi aniqlanib, yodgorliklarning xronologik doirasi belgilandi. Tipologik usul esa sopol buyumlar va metall qurollarning shakl hamda bezak xususiyatlari asosida madaniy guruhlarini ajratishga imkon berdi.

Temir davri yodgorliklari va urbanizatsiya masalasi

Temir davri manbashunosligida Farg‘ona vodiysidagi **Chust madaniyati** alohida o‘rin tutadi. Ushbu madaniyatga oid yodgorliklar metallga ishlov berishning rivojlanganligini, mustahkamlangan qo‘rg‘onlar mavjudligini va xo‘jalik ixtisoslashuvining kuchayganligini ko‘rsatadi. Qazishmalar natijasida temir qurollar, sopol buyumlar va mudofaa inshootlari aniqlangan bo‘lib, ular temir davrida ijtimoiy tabaqalanish jarayonlari boshlanganligini ko‘rsatadi⁶.

Janubiy hududlarda joylashgan **Dalvarzintepa** yodgorligi ham temir davri urbanizatsiyasini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Bu yerda aniqlangan me‘moriy inshootlar, hunarmandchilik ustaxonalari va tangalar iqtisodiy aloqalarning kengayganidan dalolat beradi. Dalvarzintepa materiali temir davrining so‘nggi bosqichlarida shahar madaniyatining shakllanganligini ko‘rsatadi.

Tabiiy-ilmiy va interdisciplinar manbalar

Zamonaviy manbashunoslikda faqat arxeologik topilmalar bilan cheklanib qolmasdan, tabiiy-ilmiy usullar ham keng qo‘llanilmoqda. Paleobotanik tahlillar orqali qadimgi ekin turlari aniqlanadi, arxeozoologik tadqiqotlar esa chorvachilik tarkibini o‘rganishga imkon beradi. Geoarxeologik izlanishlar yordamida qadimgi irrigatsiya tizimlari va daryo o‘zanlarining o‘zgarishi aniqlanadi.

Radiokarbon (C14) usuli yodgorliklarning aniq sanasini belgilashda muhim rol o‘ynaydi. Metallografik tahlillar esa temir va bronza buyumlarning ishlab chiqarish texnologiyasini aniqlashga xizmat qiladi. Shu tariqa, manbashunoslik zamonaviy ilmiy texnologiyalar bilan boyib bormoqda.

Manbashunoslikdagi muammolar va istiqbollar

Bronza va temir davri yodgorliklarini o‘rganishda bir qator muammolar mavjud. Eng avvalo, yozma manbalarining kamligi arxeologik ma‘lumotlarni asosiy manba sifatida talqin qilishni talab etadi. Ba‘zi yodgorliklarning to‘liq o‘rganilmaganligi, stratigrafik qatlamlarning buzilganligi yoki noqonuniy qazishmalar manbaviy bazaga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, mikrohududiy yondashuv va GIS texnologiyalarining qo‘llanilishi manbashunoslikni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Sun‘iy yo‘ldosh tasvirlari yordamida qadimgi irrigatsiya tarmoqlari va aholi punktlari aniqlanmoqda. Bu esa bronza va temir davri madaniy-xo‘jalik tizimini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

O‘zbekistonning bronza va temir davri yodgorliklarini o‘rganish manbashunosligi ko‘p qirrali va kompleks xarakterga ega. Arxeologik qazilmalar, yozma manbalar, tabiiy-ilmiy tahlillar hamda zamonaviy texnologiyalar uyg‘unligi ushbu davrlarning ijtimoiy-iqtisodiy va

⁶ G‘affarov M.Q. O‘zbekiston hududida eneolit davri... – 2023. 35-36 bet

15-Fevral, 2026-yil

madaniy taraqqiyotini ilmiy asosda tiklash imkonini bermoqda. Sopollitepa va Jarqo‘ton kabi bronza davri markazlari, Chust madaniyati va Dalvarzintepa kabi temir davri yodgorliklari manbashunoslikning asosiy tayanch nuqtalari hisoblanadi⁷.

Kelgusida interdisciplinar tadqiqotlarning kengayishi, yangi texnologiyalarning joriy etilishi hamda arxeologik merosni muhofaza qilish choralari manbashunoslikni yanada boyitadi va qadimgi O‘zbekiston tarixining chuqur qatlamlarini ochib berishga xizmat qiladi.

XIX asrning oxiriga kelib arxeologiya fanida arxeologik madaniyat tushunchasi vujudga keldi. Arxeologik madaniyat deb muayyan territoriyada joylashib, o‘zining mahalliy xususiyatlariga ega bo‘lgan, ayni vaqtda muayyan davrga mansub arxeologik yodgorliklar majmuasiga aytiladi. Arxeologik madaniyatning ahamiyati va eng muhim vazifasi shundaki, u qabilalar va xalqlar turmushining o‘ziga xos xususiyatlarini hamda o‘zaro mushtarak bo‘lgan umumiy tomonlarini aks ettirishdan iboratdir.

Arxeologiya boshqa fanlarga nisbatan juda yosh bo‘lib XIX asrning ikkinchi yarmida vujudga keldi va rivoj topa boshladi⁸. Mazkur fanning qadimgi tosh asrini o‘rganish sohasidagi dastlabki qadamlari ham XIX asrning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri keladi⁹. Bu sohadagi ishlar G‘arbiy Yevropada Bushs-de Pert, Larte, Martile Vankil, G.Chayld, Rossiyada esa F.I.Kalinskiy, I.S.Polyakov, I.D.Cherskiy, A.A.Chekanovski, V.V.Dakuchaev, A.S.Uvarov, Melejkovski va boshqalarning nomlari bilan chambarchas bog‘liqdir¹⁰.

XX asr birinchi yarmi, ayniqsa 60-90 yillarida arxeologik tekshirish ishlari keng quloch yoyib, arxeologiya materiallari ibtidoiy jamiyat tarixini o‘rganishning asosiy bosh manbaiga aylandi¹¹. Ibtidoiy jamiyat tarixini o‘rganish P.P.Efimenko, S.N.Zamyatnik, Ya.Bryusov, M.E.Foss, V.A.Gorodkov, O.N.Bader, P.I.Boriskovski, A.P.Okladnikov, S.P.Tolstov, B.B.Piotrovski, D.A.Kraynov va boshqalarning nomi bilan uzviy bog‘liqdir¹².

Shunday qilib, yer ibtidoiy davrning o‘ziga xos arxivi bo‘lib, mazkur arxivdan chiqqan moddiy-madaniy yodgorliklar ibtidoiy kishilar hayotini o‘rganishning asosiy manbasi hisoblanadi. Jahondagi mamlakatlarda ilmiy asosda olib borilayotgan sistematik qazish ishlari kishilikning ibtidoiy davr tarixiga doir boy, ko‘pdan-ko‘p materiallar bermoqda, mazkur materiallarning tadqiq qilinishi ibtidoiy jamiyat kishilarining turmush tarzi, diniy e‘tiqodi va boshqa masalalarini hal qilish uchun xizmat qilmoqda.

XULOSA

Bronza va temir davri yodgorliklarini o‘rganishda bir qator muammolar mavjud. Eng avvalo, yozma manbalarining kamligi arxeologik ma’lumotlarni asosiy manba sifatida talqin qilishni talab etadi. Ba’zi yodgorliklarning to‘liq o‘rganilmaganligi, stratigrafik

⁷ Markaziy Osiyoda tarixiy-madaniy viloyatlarning shakllanishi va etnik geografiyasi muammolari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 165 b.

⁸ Монгайт А. Л. Археология Западной Европы. — Москва: Наука, 1973. — Б. 5–12.

⁹ Чейлд Г. Древнейший Восток в свете новых раскопок. — Москва: Изд-во иностр. лит., 1956. — Б. 17–24.

¹⁰ Клейн Л. С. История археологической мысли. — Санкт-Петербург: Евразия, 2004. — Б. 45–63.

¹¹ Толстов С. П. По древним дельтам Окса и Яксарта. — Москва: Изд-во АН СССР, 1962. — Б. 8–15

¹² Окладников А. П. История первобытного общества. — Москва: Наука, 1968. — Б. 22–40.

15-Fevral, 2026-yil

qatlamlarning buzilganligi yoki noqonuniy qazishmalar manbaviy bazaga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bronza davri uchun bevosita mahalliy yozma manbalar deyarli mavjud emas. Shu sababli tadqiqotchilar bilvosita manbalarga murojaat qiladilar. Xususan, qadimgi Sharq yozma manbalarida Baqtriya hududi haqida ma’lumotlar uchraydi. “Avesto” matnlarida tilga olingan qadimgi hududlar va irrigatsiyaga oid tasvirlar arxeologik ma’lumotlar bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Temir davriga kelib esa qadimgi fors mixxat yozuvlari va yunon tarixchilarining asarlarida Markaziy Osiyo hududlari haqida ma’lumotlar paydo bo‘ladi.

Masalan, Ahamoniylar davriga oid yozuvlarda Baqtriya va So‘g‘diyona viloyatlari zikr qilinadi. Bu ma’lumotlar temir davri yodgorliklarini tarixiy kontekstda o‘rganishda muhim manba vazifasini bajaradi. Yunon tarixchisi Gerodot asarlarida ham Markaziy Osiyo qabilalari haqida ma’lumotlar uchraydi, biroq ular arxeologik dalillar bilan ehtiyotkorlik bilan solishtiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Монгайт А. Л. Археология Западной Европы. — Москва: Наука, 1973.
2. Чайлд Г. Древнейший Восток в свете новых раскопок. — Москва: Изд-во иностр. лит., 1956.
3. Клейн Л. С. История археологической мысли. — Санкт-Петербург: Евразия, 2004.
4. Толстов С. П. По древним дельтам Окса и Яксарта. — Москва: Изд-во АН СССР, 1962.
5. Окладников А. П. История первобытного общества. — Москва: Наука, 1968.
6. Abdullaev O‘I. O‘rta Osiyo ibtidoiy jamoa tuzumi va ilk davlatchilik tarixi. — Toshkent, 2019.
7. G‘affarov M.Q. O‘zbekiston hududida shaharsozlik madaniyatining vujudga kelishi va rivojlanish tarixi. Monografiya. — Urganch. 2025.
8. Markaziy Osiyoda tarixiy-madaniy viloyatlarning shakllanishi va etnik geografiyasi muammolari. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.